

Yulduz Usmanova

"Yursin Karvonlar"

Visit "[Yursin Karvonlar](#)" on MotoLyrics.com

Laganbardorlar talashib o'rin,
Bir-birining quritar sho'rin
Tentak bermay tentakka to'rin
Quritadi tentakning sho'rin

San'atkorlar izlashib zo'rin,
Bir-birining quritar sho'rin,
Olim topib, olimning g'o'rin, g'o'rasin,
Kasbdoshining quritar sho'rin

Naqorat:

Garchi shuncha mag'rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak,
Shunday ekan manmanlik nechun,
Kibru-havo nimaga kerak.
Kamtarin bo'l, hatto bir qadam,
Eh yarim qadam,
O'tma g'urur ostonasidan,
Piyolani inson shuning uchun,
O'par doim peshonasidan
Karvonlar ko'p, rizqi bo'lakdir,
Mayli yursin o'sha karvonlar,
Insonlar ko'p, taqdirlar bo'lak,
Lek qabrlar boshqa-boshqadir

Qassoblarku hammadan burun,
Tanishining quritar sho'rin,
Shoirlarchi berib qalb qo'rin,
She'r yozmoqning o'rniga ko'ring,

O'lmay turib, talashib go'rin,
Bir-birining quritar sho'rin,
Ahmoq bermay ahmoqqa to'rin,
Quritadi tentakning sho'rin

Naqorat:

Garchi shuncha mag'rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak,
Shunday ekan manmanlik nechun,
Kibru-havo nimaga kerak.
Kamtarin bo'l, hatto bir qadam,
Bir qadam,
O'tma g'urur ostonasidan,
Piyolani inson shuning uchun,
O'par doim peshonasidanâ€
Karvonlar ko'p, rizqi bo'lakdir,
Rizqin yesin o'sha karvonlar,
Insonlar ko'p, taqdirlar bo'lak,
So'roqlari boshqa-boshqadirâ€

Visit [Yulduz Usmanova](#) page on MotoLyrics.com, to get more lyrics and videos.

[MotoLyrics.com](#) | Lyrics, music videos, artist biographies, releases and more.